

MAQSUD SHAYXZODA... OZARBAYJON DIYORIDA

Toshkent davlat transport universiteti

Akramova Aziza o‘tkir qizi

Annotatsiya: Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi, O‘zbekistonga kirib kelishi va bu yerdagi mashhur yozuvchilar bilan tanishishi, urush yillarida yaratgan asarlari haqida. Uning asarlari buyuk inqilobiy ideallar, yorqin vatanparvarlik tuyg‘ulari, chinakam ijodiy tuyg‘ular bilan yashagan yonayotgan qalbning gulli aks-sadosini o‘zida mujassam yetgan

Kalit so‘zlar: Maqsud Shayxzoda, hayoti, ijodi, mashhur, yozuvchilar, ijodi, asarlari, vatanparvar.

Maqsud Shayxzoda... Ozarbayjon diyorida tug‘ilgan, falakning gardishi bilan o‘zbek tuprog‘iga kelib qolib, mustabid tuzumning tazyiq va tahdidlariga qaramay, zavq-shavq bilan ijod qilgan, zamonaviy o‘zbek adabiy tili va adabiyoti taraqqiyotiga bebaho hissa qo‘shgan bu buyuk ijodkorning muborak nomi hech qachon xalq xotirasidan o‘chmasligi lozim. U nafaqat shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon va pedagoggina emas, balki tom ma’noda mutafakkir siymo edi.

Yoshlik va talabalaik yillarimda bu ajoyib inson bilan tanishish, uning otashin nutqlarini tinglash, nafis suhbatlaridan bahramand bo‘lish sharafiga erishganman. Uning hozir Alisher Navoiy nomi bilan atalayotgan Til va adabiyot institutidagi himoyalardan keyin dasturxon atrofi majlislariga raislik qilgan paytlaridagi porloq aql-zakovati, boy bilimi va billur ruhiy olami yog‘dularining chappor urib parvoz qilganini ko‘p bor ko‘rganman.

Ammo shu bilan birga yigirma yoshida ona yurtidan Toshkentga surgun qilingan bu jabrdiyda inson boshiga o‘zbek diyorida tushgan og‘ir savdolardan ham yaxshi xabardorman...

Shuning uchun qo‘lingizdagi kitobni yozishdan avval uzoq yillar davomida shoir hayoti va ijodini o‘rganish bilan birga uning stalincha qirg‘in-qatag‘on davrida do‘stlarning an’anaviy qo‘rqoqligi, dushmanlarning bundan ham an’anaviy tuhmatlari orqasida chekkan azob-uqubatlari tarixi bilan ham tanishdim.

Odatda bo‘yi chog‘roq kimsa o‘rta bo‘yli boshqa bir kishiga tavsif bersa, uni daroz, deb atashi va, aksincha, bo‘ydov kimsa xuddi o‘sha kishini sizga pakana, deb tanishtirishi hech gap emas. Hech kimning fikri hech qachon ayni haqiqat bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham kamina ushbu kitobda turli toifadagi zamondoshlarning Shayxzoda haqidagi xotiralaridan barakali foydalanishga va uning haqiqatga yaqin

siyratini siz, muhtaram kitobxonning oliy hukmiga havola etishga urindim. Men pakana ham, daroz ham emasman. Shunga qaramay, ayni haqiqat bo'lishi uchun sizni Shayxzodaning tashqi qiyofasi va asosiy belgilari bilan arxiv hujjatlariga tayangan holda tanishtirsam: bo'yi o'rta (165-170 sm), jasadi to'la, yelkasi ko'tarilgan, bo'yni kalta, sochlari qora, ko'zlari qora, yuzi dumaloq, manglayi baland, qoshlari yoysimon, burni katta va keng, og'zi katta, lablari do'rdoq, dahani tekis, quloqlari katta. Shayxzoda qiyofasining bu belgilari chekistlar tomonidan tuzilgan.

Agar kelajakda biror rassom yoki haykaltarosh Maqsud Shayxzodaning rasmi yoxud haykalini yaratmoqchi bo'lsa, bu belgilarning unga asqotishi shubhasiz. Lekin bu belgilar bizga o'zbek xalqining dardu hasratlari, orzu va umidlari bilan yashagan, o'zbek adabiyoti va san'atining gullab-yashnashi yo'lida mardona ijod qilgan, hech kimdan saxovat va muruvvatini ayamagan, o'ta hayotsevar, o'ta jo'shqin, o'ta donishmand insonning tirik nafasini yetkazishga ojiz. Shoyad kaminaning bu ajoyib inson xotirasiga bo'lgan so'nmas hurmati siz, aziz kitobxonning o'lmas shoirni tirik inson sifatida tasavvur etishingizga ozmi-ko'pmi ko'mak bersa...

Agar ushbu ma'rifiy asar Maqsud Shayxzodaning hozir hayot bo'lgan zamondoshlarida ham, yosh avlod vakillarida ham uning buyuk shoir va buyuk inson sifatidagi obrazini yaratsa hamda uning xotirasiga nisbatan samimiy hurmat tuyg'ularini uyg'ota olsa, kamina o'zini bu dunyodagi eng baxtiyor kishilardan biri, deb his etgan bo'lurdi.

Afsuski, umrining so'nggi kunlarida ne-ne zamondoshlari to'g'risida quloch-quloch ajoyib xotiralarini yozib ketgan Ozod aka shu voqeani batafsilroq tasvirlash chorasini ko'rmagan. Holbuki, u Shayxzoda haqidagi mazkur voqea ham tilga olib o'tilgan shoir maqolasini bir necha marta aynan e'lon qilgan.

Na iloj, biz ham shu o'tirishni Ozod akaning muxtasar tasvirida siz, azizlarning e'tiboringizga havola qilamiz. Ammo muallifga so'z berishdan avval voqeaning Chilonzor tumani savdo markazi yonidagi "Yozuvchilar uyi"ning uchinsi qavatida kechganini aytishimiz lozim.

"...Odatdagidek, qadah bahona do'stlarimiz, mehmonlarimiz sha'niga yaxshi so'zlar aytildi. Navbat Shayxzodaga keldi. Shayxzoda uy bekasining sha'niga alyor aytdi. Lekin bu alyor shunchaki qadah ko'tarish emas edi. U ajoyib bir jo'shqinlik bilan qisqagina gapida Sharq ayolining o'tmishini, kurash yo'llarini, tarixiy taqdirini tasvirlab berdi, uning buguni haqida gapirdi, shunday gapirdiki, o'tirganlarning hammasi ayollarga yangicha nazar bilan qaray boshlashdi. Bu, alyor emas, butun boshli leksiya edi, lekin u jonli detallarga, tarixiy misollarga, ranglarga boy bo'lganidan hammamiz juda miriqib eshitdik. Shunda men domlaga yana bir karra tan berdim, - u har bir imkoniyatdan foydalanib, bilimlarini odamlarga ulashar ekan".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mamurova, F., & Ataxanov, O. (2024). MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI HAQIDA. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(10), 111-116.
2. Mamurova, Feruza, and Durдона Obutjonova. "DESCRIBING MAKSUD SHAIKZODA." Current approaches and new research in modern sciences 3.4 (2024): 5-8.
3. Obutjonova, D. (2024). O‘ZBEK VA OZARBAJON XALQINING SEVIMLI SHOIRI. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(10), 103-105. Mamurova F.I. i Durдона O. (aprel 2024 g.). MAKSUD ShAYXZODANING «MIRZO ULUGBEK"ASARI TALILI. V Mejdunarodnoy globalnoy konferensii (Tom 1, № 6, str. 79-81).
4. Durдона, O., & Mamurova, F. I. (2024, April). MAQSUD SHAYXZODA “TOSHKENTNOMA”. In International Global Conference (Vol. 1, No. 5, pp. 148-152).
5. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” DRAMASINING YOZILISH TARIXI VA VATANGA BO ‘LGAN MUHABBATI, JASORATINING IFODALANISHI. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(12), 13-16.
6. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2024). DESCRIBING MAKSUD SHAIKZODA. Current approaches and new research in modern sciences, 3(4), 5-8.
7. Durдона, O., & Islamovna, M. F. (2024, March). SHAYXZODA SIYMOSIGA TA’RIF. In International Global Conference (Vol. 1, No. 1, pp. 188-191).
8. Mamurova, F., & Qodirov, I. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING “TOSHKENTNOMA”-SHUKRONALIK DOSTONI. Молодые ученые, 2(6), 87-89.
9. Islamovna, M. F. (2024). THE PLACE OF MAKSUD SHEIKZODA'S LIFE AND CREATION IN UZBEK NATIONAL LITERATURE. MEDITSINA, PEDAGOGIKA I TEXNOLOGIYA: TEORIYA I PRAKTIKA, 2(2), 471-474.
10. Mamurova, F. I., & ugli Abdubahabov, A. A. (2023). TWO FOLK POETS. “TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE”, 1(3), 23-30.
11. Islomovna, M. F., & Abduvoxob o‘g‘li, A. A. (2023, January). Maqsud Shayxzodaning Hayoti Va Ijodi. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (pp. 19-20).
12. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E-Conference Globe (pp. 176-178).

13. Islamovna, M. F. (2024, January). MAQSUD SHAYKHZADEH-TWO FOLK DILBANDI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 1, pp. 189-192).
14. Islomovna, M. F. (2024). O ‘ZBEK ADABIYOTINING ATOQLI NAMOYANDALARIDAN BIRI MAQSUD SHAYXZODNING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” ASARI. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(1), 89-92.
15. Islamovna, M. F. (2024). THE CREATION OF MAQSUD SHAYKHZODA- AS A GOLDEN LEGACY. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2(1), 90-93.